



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2021 y. "28" sentabr

№ 38

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy Nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ- 707- son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4796- son qarori bilan tasdiqlangan "2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi"ning 5- bo'lim 71- bandi, shuningdek, 2021- yil 11- maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113- son qarorining 15- bandiga muvofiq, ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiyatni xalqaro tajribalardan foydalangan holda yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 7- iyundagi 17- sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy Nizom" o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov